



G'ARB MAMLAKATLARIDA INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARINING JADALLASHUVI. YEVROPA ITTIFOQI VA AQSH MUNOSABATLARI



TIIAME

Reja:

1. Integratsiyalashuv jarayonlari va ularning natijalari
2. YI va AQSH munosabatlari.



Tayanch iboralar



- Kapital — bu qo‘shimcha qiymat olishda foydalaniladigan moddiy, intellektual va moliyaviy vositalar yig‘indisi.
- Subsidiya — davlat yoki boshqa biron-bir muassasa tomonidan boshqa davlat, muassasa, alohida shaxsga ko‘rsatiladigan moliyaviy yoki moddiy yordam.
- Restrukturizatsiya — bu qarz yoki kreditni to‘lash shartlarini qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirish.

Integratsiyalashuv jarayonlari va ularning natijalari

- XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan kapital, tovarlar, xizmat ko'rsatish va ishchi kuchining erkin harakatlanishi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida rivojlanish va yashash darajasini bir-biriga yaqinlashtirdi.
- Ishchi kuchlarining rivojlangan mamlakatlarga mavsumiy yoki shartnoma asosida ishga borishi kam rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik muammosini hal qilishga ko'maklashdi.
- Qoloq mintaqalarni rivojlantirish umumyevropa dasturlari ham bu mintaqalarning iqtisodiy o'sishiga yordam berdi.





Integratsiyalashuv jarayonlari va ularning natijalari



- 1990-yillardan boshlab Yevropa integratsiyasining keyingi rivojlanishi ikki yo‘nalish bo‘yicha bordi.
- 1. Yangi a‘zolari ko‘paytirdi 1996-yili a‘zolar soni 15 taga yetdi.
- 2002-yili Kopengagenda (Daniya) bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Yevroittifoqqa yangi a‘zolar – Vengriya, Kipr, Latviya, Litva, Malta, Polsha, Slovakiya, Sloveniya, Chexiya, Estoniya qabul qilindi.
- 2. Integratsiyaning chuqurlashuvida Yevropa mamlakatlarida o‘zaro siyosiy munosabatlar sohasini ham qamrab olish yo‘lidan bordi. Yevropa parlamentining maqomi oshdi, Yevroparlamentga to‘g‘ridan to‘g‘ri savloylar o‘tkazildi.



Integratsiyalashuv jarayonlari va ularning natijalari



- 1987-yili Yevropa Iqtisodiy Hamkorlik tashkilotini YIga aylantirish bilan u «ichki chegaralarsiz makon» bo‘lib qoldi.
- 1993-yili yagona Yevropa fuqaroligini ta’minlagan Maastrixt kelishuvlari kuchga kirdi.





Integratsiyalashuv jarayonlari va ularning natijalari



- 2002 yili Yevropada (Buyuk Britaniyadan tashqari) yagona valuta – yevro joriy qilindi.
- Yagona tashqi va mudofaa siyosati olib borilmoqda.
- Yevropa Ittifoqiga amalda konfederatsiya tipidagi yagona davlat tuzilmasi sifatida qarash mumkin bo‘ldi.





Integratsiyalashuv jarayonlari va ularning natijalari



- Ylga kiruvchi bir qator davlatlar qarzining haddan oshib ketishi katta muammolarni keltirib chiqardi.
- 2015-yilgi saylovlarda Gretsiyada hokimiyatga kelgan A.Sipras boshchiligidagi so‘llar hukumati mamlakatning qarzini kreditorlar qo‘ygan shartlar bo‘yicha uza olmasligini e‘lon qildi.
- Gretsiya hukumati qarzlarning bir qismidan voz kechishlarini talab qildi. Gretsiya qarzini restrukturizatsiya qilish to‘g‘risida Yevrokomiss iya kelishuvga erishgan bo‘lsa-da, Yevropa markaziy banki va Xalqaro valuta fondi bilan muzokaralar yana davom etdi.





Integratsiyalashuv jarayonlari va ularning natijalari



- Italiya va Ispaniyaning ham qarzlari juda katta miqdorni tashkil qiladi.
- Ayni paytda Yilda iqtisodiy jihatdan yetakchilik qilayotgan Germaniya va Fransiyaning siyosiy bosimidan ham norozilik kuchayib bormoqda.





Integratsiyalashuv jarayonlari va ularning natijalari



- Buyuk Britaniyada 2016-yil iyunda o'tkazilgan referendum bo'lib, unda ishtirok etgan aholining yarmidan ko'pi mamlakatning Yevropa Ittifoqidan chiqishi uchun ovoz berdi.
- 2016 yil sentabrda Bratislava shahrida bo'lib o'tgan YI rahbarlari yig'ilishida ilk bor Buyuk Britaniya bosh vaziri qatnashmadi.
- GFR kansleri A. Merkel YI og'ir inqirozda ekanligini tan oldi





Integratsiyalashuv jarayonlari va ularning natijalari



- 2017-yil oktabr oyida Ispaniyaning Kataloniya avtonom viloyatida o'tkazilgan referendum bo'ldi.
- Kataloniya mustaqilligi e'lon qilindi.
- Madriddagi markaziy hokimiyat referendum natijalarini tan olmadi, Kataloniya hukumati a'zolarini qamoqqa oldi.



REFERÈNDUM D'AUTODETERMINACIÓ DE CATALUNYA 2017
REFERENDUM DE AUTODETERMINACIÓN DE CATALUÑA 2017
REFERENDUM D'AUTODETERMINACION DE CATALONHA 2017

Voteu que Catalunya sigui un estat independent en forma de república?
¿Quiere que Cataluña sea un estado independiente en forma de república?
Voteiz que Catalonha virgue un estat independent en forma de republica?

☐ **SÍ**
OC

☐ **NO**
NON


Marqueu l'opció que desitgeu
Marque la opción que desee / Marqueiz ara opción que desitzi



YI va AQSH munosabatlari.



- «Sovuq urush» yakunlanib, kommunizm xavfi bartaraf qilingandan so‘ng AQSH bilan YI o‘rtasidagi munosabatlarda ham o‘zgarish yuz berdi.
- 1990-yili YI va AQSH o‘rtasida Deklaratsiya – Transatlantik xartiya imzolandi.



YI va AQSH munosabatlari.

- 2007-yili YI va AQSH Transatlantik iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida kelishuv imzoladi va Transatlantik iqtisodiy kengash joriy qildi.
- 2000-yillar davomida tomonlar o'rtasidagi aloqalarning turli xususiy jihatlarini tartibga solishga qaratildi.



Transatlantik iqtisodiy kengash faoliyatiga qarshi mitinglar



YI va AQSH munosabatlari.



- AQSH va YI dunyoda eng yirik energiya iste'molchilari bo'lib, ular atmosferaga eng ko'p zaharli moddalarni chiqaradi.
- 2000-yillar boshlarida ikki tomon energetika samaradorligi, xavfsizlik va iqlim o'zgarishi to'g'ri isida bayonot, Iqlim o'zgarishi to'g'risida BMTning Parij konvensiyasini imzoladi.






YI va AQSH munosabatlari.



- 1 iul 2017-yili AQSH prezidenti D.Tramp mamlakatning bu konvensiyadan chiqishini e'lon qildi.
- AQSHning 22 statida senatorlar D.Trampga konvensiyadan chiqish bo'yicha murojaat bilan chiqishdi





YI va AQSH munosabatlari.



TIIAME

- AQSH bilan YI o'rtasidagi munosabatlarda ma'lum kelishmovchiliklar mavjud. Bu kelishmovchiliklar ayniqsa xalqaro muammolarni hal etishdagi yondashuvlarning farqida keskin ko'zga tashlanmoqda.
- AQSH xalqaro mojarolarni hal qilishda kuchga tayanish tarafdori, YI esa diplomatik imkoniyatlardan oxirigacha foydalanish lozim deb hisoblaydi.
- AQSH va YI o'zaro siyosiy, harbiy-strategik va iqtisodiy hamkorlik manfaatlari orqali bir-biri bilan uzviy bog'langan.



Uyga vazifa



- 1. 1990-yillari Yevropa integratsiyasi qanday yo‘nalishlar bo‘yicha davom ettirildi?
- 2. Buyuk Britaniyaning YIdan chiqishiga qanday omillar sabab bo‘ldi?
- 3. YI va AQSH munosabatlari qanday hujjatga asoslanadi?
- 4. YI va AQSH o‘rtasida qanday masalalar bo‘yicha kelishmovchiliklar mavjud?